

Gulsanam Mamazoitova

"Yo'lingga suvlar sepsam"

Visit "[Yo'lingga suvlar sepsam](#)" on MotoLyrics.com

Mani yor etay depsan,
Olislardan izlab kepsan,
O'ylamagin rozidur deb,
Yo'lingga suvlar sepsam.

Tor ko'chadan, tosh yo'lakdan,
Baxtingni izla bo'lakdan,
Ovora bo'lma joy so'rab,
Egasi bor bir yurakdan.

Soy oqadi tez, shovullab,
Ishqimda yonma lovullab,
Yorim bor, poylab yurar,
Qadamlarim qorovullab.

Mani yor etay depsan,
Olislardan izlab kepsan,
O'ylamagin rozidur deb,
Yo'lingga suvlar sepsam.

Noz qilaman nozlar bilan,
Kuylayman shox sozlar bilan,
Bekordan o't yoqib qoldi
Yo'limga pardozi bilan.

Qoshi ko'zim qaro dema,
Shundan bir yaro dema,
Agar akam bilar bo'lsa,
Qaydan keldi balo dema.

Mani yor etay depsan,
Olislardan izlab kepsan,
O'ylamagin rozidur deb,
Yo'lingga suvlar sepsam.

